

PROSPECTS FOR THE INTRODUCTION OF ISLAMIC FINANCE AND BANKING IN UZBEKISTAN

Voitov Aziz Botirovich

Tashkent State University of Economics

Independent Researcher

Kirish. Jahon moliya amaliyotida so‘nggi yillarda islom moliya tizimi tushunchasi tobora keng qo‘llanilayotgan va ko‘plab mamlakatlar iqtisodiy siyosatida muhim o‘rin egallayotgan moliyaviy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Hozirgi kunda islom moliyaviy institutlari nafaqat musulmon davlatlarida, balki aholining katta qismi boshqa din vakillaridan iborat bo‘lgan mamlakatlarda ham faol rivojlanib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham moliya tizimini modernizatsiya qilish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvni kengaytirish jarayonida islom moliyasi instrumentlarini joriy etish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimiz bank tizimida islom moliyaviy xizmatlarini rivojlantirish iqtisodiyotga qo‘shimcha investitsiyalar jalb etish, moliyaviy xizmatlar ko‘lamini kengaytirish hamda bank tizimining barqarorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Islom moliya tizimining rivojlanish jarayoni XX asrning 1960-yillarida Misrda tashkil etilgan dastlabki islomiy moliya institutlari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, mazkur tizim qisqa vaqt ichida jahon moliya bozorining muhim segmentiga aylandi. Bugungi kunda islomiy moliya institutsiyalari dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlarida faoliyat yuritib, ularning aktivlari hajmi yiliga o‘rtacha 15–20 foiz sur‘atlarda o‘sib bormoqda. Bu esa islom moliya tizimining barqaror va istiqbolli moliyaviy model ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham islom moliyasini rivojlantirish masalasi so‘nggi yillarda davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish uchun zarur huquqiy asoslarni yaratish zarurligi alohida ta‘kidlab o‘tildi. Ushbu jarayonda Islom taraqqiyot banki hamda boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlarini jalb etish orqali milliy moliya tizimiga zamonaviy islom moliyaviy instrumentlarini joriy etish rejalashtirilmoqda.

Asosiy qism. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro islom moliyaviy institutlari bilan hamkorligi ham izchil rivojlanib bormoqda. Xususan, mamlakatimiz 2003-yilda Islom taraqqiyot bankiga a‘zo bo‘lgan bo‘lib, ushbu hamkorlik doirasida iqtisodiyotning turli tarmoqlarini moliyalashtirishga qaratilgan qator investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Natijada ITB guruhi tomonidan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan loyihalar portfeli sezilarli darajada kengayib, hozirgi kunda uning hajmi Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng yirik ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, 1,8 milliard AQSh dollaridan ortiqni tashkil etmoqda. Bu esa mamlakatimizda islom moliyaviy institutlari faoliyatini rivojlantirish uchun muhim iqtisodiy asos mavjudligini ko‘rsatadi.

Islom moliyalashtirish tizimining an‘anaviy moliyalashtirishdan asosiy farqi shundaki, u foiz asosidagi kreditlashdan voz kechib, foyda va zararlarni taqsimlash hamda real aktivlarga asoslangan moliyalashtirish tamoyillariga tayanadi. Bunda moliyaviy operatsiyalar sheriklik va hamkorlik prinsiplariga asoslanib, moliyalashtirish jarayonida iqtisodiy faoliyatning real sektorini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur xususiyatlar islom moliya tizimini barqaror, shaffof va ijtimoiy jihatdan mas‘uliyatli moliyaviy model sifatida namoyon etadi.

Shu sababli O‘zbekiston moliya tizimida islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish iqtisodiyotga qo‘shimcha investitsiyalar jalb etish, moliyaviy xizmatlar turini kengaytirish hamda bank tizimining barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. Jahon amaliyotida keng qo‘llanilayotgan islom moliyaviy instrumentlari ham aynan ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Quyida ushbu instrumentlarning asosiy turlari va ularning amaliy qo‘llanilish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. (1 – jadval)

1-jadval

Islom moliyasi instrumentlari turlari¹

Islom moliyasi instrumenti	Moliyalashtirishning mohiyati va mazmuni
Murobaha	Bank tomonidan mijoz uchun tovar yoki aktiv sotib olinib, ustama foyda qo‘shilgan holda mijozga sotiladigan savdo asosidagi moliyalashtirish shakli. Islom bank amaliyotida eng keng qo‘llaniladigan instrumentlardan biridir.
Muzoraba	Investor (kapital egasi) va tadbirkor o‘rtasida tuziladigan sheriklik shartnomasi bo‘lib, bunda kapital investor tomonidan ta‘minlanadi, tadbirkor esa loyihani boshqaradi. Olingan foyda oldindan kelishilgan nisbatda taqsimlanadi.
Mushoraka	Bir necha tomonlarning kapital qo‘shishi orqali amalga oshiriladigan sheriklik asosidagi moliyalashtirish shakli. Foyda kelishilgan nisbatda taqsimlanadi, zarar esa qo‘shilgan kapital ulushiga mutanosib ravishda bo‘linadi.
Ijara	Aktiv yoki mulkni ma‘lum muddatga ijaraga berish asosidagi moliyalashtirish mexanizmi. Ayrim hollarda ijara muddati yakunida mulkni mijoz tasarrufiga o‘tkazish imkoniyati ham ko‘zda tutiladi.
Takoful	O‘zaro yordam va risklarni birgalikda qoplash tamoyiliga asoslangan islomiy sug‘urta tizimi bo‘lib, ishtirokchilar o‘zaro kafolat asosida sug‘urta fondini shakllantiradilar.
Salam	Kelajakda yetkazib beriladigan mahsulot uchun to‘lovni oldindan amalga oshirish asosidagi shartnoma. Asosan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yoki xomashyo yetkazib berishda qo‘llaniladi.
Istisna	Qurilish yoki ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirishga mo‘ljallangan shartnoma bo‘lib, unda buyurtma asosida muayyan ob‘ektni belgilangan muddat va narxda yaratish nazarda tutiladi.
Sukuk	Real aktivlar yoki loyihalar bilan ta‘minlangan investitsiya sertifikatlari bo‘lib, investorlarning aktivlardagi ulushini ifodalaydi. Sukuk islom moliyasida obligatsiyalarga o‘xshash instrument sifatida qo‘llaniladi.

Islom moliyasi tizimining asosiy tamoyillaridan biri moliyaviy operatsiyalarni real aktivlarga asoslash va savdo hamda sheriklik munosabatlariga tayanishdan iborat. Shu sababli islom banklari

¹ Иқтисодий адабиётларни ўрганиш асосида муаллиф томонидан мустақил тузилди

tomonidan amalga oshiriladigan moliyalashtirish jarayonlari an'anaviy bank tizimidan tubdan farq qiladi. Islom bankchiligida pulning o'zi mustaqil ravishda daromad keltiruvchi vosita sifatida qaralmaydi. Ya'ni pulni foiz evaziga qarz sifatida berish (riboga asoslangan kreditlash) taqiqlangan. Buning o'rniga banklar mijoz ehtiyojiga muvofiq real aktivlar bilan bog'liq savdo, ijara yoki sheriklik asosidagi moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanadilar.

Mazkur yondashuvga ko'ra, islomiy banklar mijozlarning talabiga muvofiq turli aktivlarni moliyalashtirishi mumkin. Jumladan, bank mijoz uchun ishlab chiqarish uskunalari, transport vositalari, xomashyo yoki boshqa turdagi tovarlarni sotib olib berishi, qurilish yoki ishlab chiqarish loyihalarini moliyalashtirishi, shuningdek, aktivlarni ma'lum muddatga ijaraga berishi mumkin. Bunda moliyalashtirish jarayonining markazida savdo operatsiyasi yoki aktivdan foydalanish huquqini taqdim etish yotadi. Shu orqali bank daromadi foiz ko'rinishida emas, balki savdo ustamasi yoki ijara to'lovi shaklida shakllanadi.

Islom moliya amaliyotida keng qo'llaniladigan instrumentlardan biri ijara (islomiy lizing) hisoblanadi. Ijara mexanizmini an'anaviy bank tizimidagi lizing operatsiyalari bilan taqqoslash orqali ushbu ikki tizim o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rish mumkin. Masalan, an'anaviy bank orqali avtomobil lizing asosida sotib olinayotgan holatni olaylik. Odatda bank mijoz bilan lizing shartnomasini tuzadi va avtomobil qiymatining ma'lum qismini, masalan 20–30 foizini boshlang'ich to'lov sifatida talab qiladi. Shundan so'ng bank avtomobil qiymatini to'liq moliyalashtiradi va mijozga ushbu mablag'ni kredit shaklida taqdim etadi. Keyinchalik bank tomonidan kredit summasiga ma'lum foiz stavkasi qo'llanib, masalan yillik 20–25 foiz miqdorida ustama hisoblanadi. Natijada mijoz avtomobil qiymati va foiz to'lovlarini ma'lum muddat davomida oyma-oy to'lab boradi. Agar to'lovlar kechiktirilsa, bank tomonidan jarima yoki qo'shimcha komissiya undiriladi va bu mablag' bank daromadi sifatida hisobga olinadi.

Islom bank tizimida esa ushbu jarayon mutlaqo boshqacha tartibda amalga oshiriladi. Masalan, mijoz avtomobil sotib olish istagini bildirgan taqdirda, bank avvalo avtomobil sotuvchisi bilan oldi-sotdi shartnomasini tuzadi va avtomobilni o'z nomiga xarid qiladi. Shundan so'ng bank ushbu aktivni mijozga ijara shartnomasi asosida ma'lum muddatga foydalanish uchun beradi. Mijoz bankka ijara to'lovlarini amalga oshirib boradi va shartnomada belgilangan muddat yakunida aktivga egalik huquqi mijozga o'tkazilishi mumkin. Bu turdagi shartnoma amaliyotda "ijara muntahia bi tamlik", ya'ni mulk huquqining o'tishi bilan yakunlanuvchi ijara deb yuritiladi.

Shuningdek, islom moliya tizimida to'lovlarning kechikishi bilan bog'liq jarimalarga nisbatan ham o'ziga xos yondashuv mavjud. Islomiy bank amaliyotida jarimalar bank daromadi sifatida qabul qilinmaydi, chunki bu foizga asoslangan daromad sifatida talqin qilinishi mumkin. Shu sababli jarima to'lovlari mijozlarni moliyaviy intizomga chaqirish maqsadida shartnomaga kiritilishi mumkin bo'lsa-da, ushbu mablag'lar bank foydasiga emas, balki xayriya yoki ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltiriladi.

Xulosa. Yuqoridagi misoldan ko'rinib turibdiki, an'anaviy bank tizimida mijozga pul mablag'i kredit shaklida berilib, undan foiz undiriladi. Islom bankchiligida esa moliyalashtirish jarayoni real aktivlar asosida amalga oshirilib, bank daromadi savdo ustamasi yoki ijara to'lovi shaklida shakllanadi. Bu esa moliyaviy operatsiyalarni real iqtisodiyot bilan uzviy bog'laydi va spekulyativ operatsiyalarni cheklaydi.

Mazkur tamoyillar O'zbekistonda islom moliyasi va bankchiligini rivojlantirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish orqali real sektorni qo'llab-quvvatlash, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish hamda iqtisodiyotga qo'shimcha investitsiyalar jalb etish imkoniyatlari kengayadi. Shu bilan birga, islom moliyaviy instrumentlarini bank tizimiga integratsiya qilish mamlakatimiz moliya bozorining diversifikatsiyasini ta'minlash va xalqaro moliya tizimi bilan hamkorlikni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>. 2020 йил 29 декабрь.
2. В. Jurayev. (tarj) "Islomiy moliya va bank tizimi", "O'zbekiston" Toshkent 2019y. 138-bet.
3. Мусаев Р.А., Магомедова Ю.Д. Тенденции развития исламских финансовых институтов в условиях глобализации в журнале Проблемы теории и практики управления, издательство ООО «Международная Медиа Группа» (Москва), № 11
4. Зарипов И.А. (2016) Исламские финансы как стратегический ориентир развития России. / Zaripov I.A. (2016) Islamic finance as a strategic landmark for the development of Russia. <https://cyberleninka.ru/>.
5. Rafik Yunus al-Misri. Fikkh imushchestvennykh otnosheniy. / per. s arab. [Fiqh property relations. / translated from Arabic] / D.Adzhi; redsovet: B.F.Mulyukov and others, - Moskva: Islamskaya kn., 2014. – P. 320.

